

O'QUVCHILARDA XULQ-ATVOR SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Sultonova Nurxon Anvarovna

Qo`qon DPI, Maktabgacha ta`lim kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Maqolada o`zbek xalq og`zaki ijodi janrlarining yosh avlod – maktab o`quvchilarining xulq-atvor sifatlarini shakllantirishdagi ahamiyati, o`ziga xos jihatlari, sermazmun tuzilishi va qo`llash usullari haqida ma`lumot beriladi. Shuningdek, o`zbek xalq og`zaki ijodi janrlaridan namunalar keltirilib, ularning tarbiyaviy jarayonda bolalarga ta`siri va ifodasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: xalq og`zaki ijodi, bola, o`quvchi, tarbiya, xulq-atvor sifatleri, vosita, folklyor, maqol, topishmoq, xalq qo`shiqleri, laparlar, masal.

Xalq og`zaki ijodi o`zbek xalqining qadriyatlaridan hisoblanib, insonlarning jamiyatda, oilada, mehnatda, bir-birlariga munosabatda va o`z-o`zlariga munosabatidagi me`yorlar va qoidalarning yig`indisi. o`quvchilari xalq og`zaki ijodida tarbiyalashda xalq og`zaki ijodining o`rni va roli katta ahamiyatga egadir.¹

Xalq og`zaki ijodi kishining hissiyotiga kuchli ta`sir etib, hayotni uni barcha murakkabliklarini, quvonch va tashvishlarini to`g`ri anglashga, xar-xil odamlarni bilib olishga, ularning turli yaxshi, yomon xatti-harakatlari motivlarini anglab, to`g`ri baxolashga o`rgatadi. Xalq og`zaki ijodi- deganda oddiy mehnatkash xalq yaratgan va avloddan-avlodga o`tib kelayotgan tarbiya borasidagi qarashlar, g`oyalar, tajribalar, urf-odat va an`analarning majmuasi tuShuniladi. Bu xalqimizning o`zi yaratgan topishmoq, matal, makol, masal, zrtak latifa va dostonlarda o`z ifodasini topgan.² Xalq og`zaki ijodida burch va vijdon, qadr-qimmat va or-nomus, halollik va olijanoblik kabi axloqiy muammolar kun tartibiga qo`yiladi. Xalqning turmush tarzi, mexnatdagi jasorati, vatanparvarligi, insonpavarligi, insoniy munosabatlar: do`stlik va o`rtoqlik, sevgi mehr-muruvvat kabilar tarannum etiladi.

O`zbek xalqi boy adabiy-badiiy, madaniy merosga ega. O`zbek xalq og`zaki ijodi asarlari: xalq qo`shiqleri, ertaklar, dostonlar, qadimgi badiiy yozma yodgorliklar: Mahmud Qoshg`oriyning “Devoni lug`oti turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-xaqoyiq”, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg`u bilig”, asarlari: o`rta asrlarda yaratilgan Ibn Sinoning “Donishnoma”, “Tibiiy doston”, Sa`diyning “Guliston”, “Bo`ston”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Jomiyning “Bahoriston”, Ahmad Yasaviyning “Hikmat” va boshqa ko`plab “Odobnoma” shaklidagi badiiy asarlar: O`zbek mumtoz adabiyoti: Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Avaz O`tar o`g`li, Furqat va boshqalarning asarlari: o`zbek adabiyoti vakillari:

Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho`lpon, Usmon Nosir, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza, Sadridin Ayniy, Hamid Olimjon, Oybek, Mirtemir, G`ofur G`ulom, Quddus Muhammadiy, Hamid G`ulom, Saida Zunnunova, Zulfiya va boshqa yozuvchi, shoirlarning badiiy asarlari yuksak insoniy axloqiy

¹ З. АЗИЗОВА, З. АБДУРАЗАКОВА INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE // Болаларда халқ оғзаки ижоди воситасида миллий ғурур ҳиссини шакллантиришда оиланинг ўрни Vol. 2 No. 9 (2023): Published: 2023-01-08

² Jumaboev M. O`zbek va chet el bolalar adabiyoti. T.: O`zbekiston, 2002. 157 b.

g'oyalar ruhida bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashning kuchli vositasi sifatida xalq og'zaki ijodida bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

Xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish uchun, avvalo, o'quvchilar orasida turli adabiy kechalar o'tkazish, she'rxonliklar namoyish qilish, xalq o'gitlaridan namunalar keltirish lozim.

Birinchi, adabiy kechaning tarbiyaviy maqsadini aniqlash va shu maqsad asosida uning mazmunini belgilash zarur. Adabiy kecha uchun badiiy asar tanlanganda quydagi me'yorlarga amal qilinadi: badiiy asar yuksak axloqiy me'yorlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi va uning badiiylik darajasi yuqori bo'lishi kerak. Adabiy asarning badiiy darajasi yuqori bo'lishi zarurligining sababi Shundaki, asarning shakli va mazmuni yoshlar qalbini to'lqinlantira olishi, yuksak estetik did, his-tuyg'ularni uyg'ota oladigan bo'lishi juda muximdir. Badiiylik darajasi past asarlardan foydalanishning tarbiyaviy ta'siri kechaning qanday o'tishidagina emas, ko'proq uni qanday tayyorlashda bo'ladi, hatto tinglovchilarning his-tuyg'ulariga teskari ta'sir etishi ham mumkin.

Ikkinchi, adabiy kechaning tarbiyaviy ta'siri kechaning qanday o'tishidagina emas, ko'proq uni qanday tayyorlashda bo'ladi. Chunki adabiy kecha qanchalik yaxshi qiziqarli bo'lmasin, u qisqa muddatli voqea, lekin jarayon emas.

Xalq og'zaki ijodidan foydalangan holda adabiy kechani mazmunli o'tkazish uchun kechada ishtirok etishga iqtidorli, qobiliyatli bolalar tanlanadi chunki ularning tayyorlanishiga ko'p vaqt ketmaydi, o'rtacha o'qiydigan o'quvchilar buning uchun ko'proq vaqt sarflashi, peshona teri to'kishiga to'g'ri keladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida mehnat tarbiyasi va kasb-xunar egallash, bola kamolatining bosh omili sifatida talqin qilinadi. SHubxasiz, topishmoklar bolalarda zehn va idroklik ilk kuzatuvchanlik farosatni o'stirish va ularni mantiqiy shakllashga o'rgatish bilan birga, mehnat va mehnat axlini qadrlashga, kasb-hunarni egallashga o'rgatadi.³ Xalq og'zaki ijodidan matal, topishmoq, she'r, masal, doston va maqollardan namunalar keltiramiz.

Topishmoqlar.

Biz bu yerda turamiz, Xizmat bo'lsa qilamiz. Ikki soxib boshida,
Ikki qator bo'lib olamiz. (*Arra*)

Tanasida og'ir boshi,

Ko'p joyda u ish boshi.

Mehnatidan hamma rozi,

Taqa-to'q, tam-tuqim ovozi. (*Volga*)

Bekorchiga kerakmas,

Ishlaganga bilinmas.

Qarasangiz ko'rinmas. (*Vaqt*)

Burchakni topib olib,

Hunarini ishga solib,

To'r to'qiydi tinmayin,

To'qigan to'ri ipsiz. (*Urgimchak*)

Mexnat qilar tinmayin,

CHarchash nima bilmayin.

Inoq bo'lib to'p yashar,

Qishda muhtoj bulmayin. (*CHumoli*)

³ Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. -T.: O'qituvchi. 1992.-62 b.

Mehnat kilib tolmaydi,
Sira orom olmaydi. (*Soat*)

Bunday mazmundagi topishmoqlar yoshlarning amalini charxlashda, dunyoqarashining shakllanishida, mehnat va kasb-xunar egallashda ehtiyoj ekanligini tuShunib yetishlarida tarbiyaviy vosita sifatida dars mashg'uloti va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, oilada, maktabdan tashqaridagi tarbiya muassasalarida, bolalar gurungida keng qo'llansa, u tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi, albatta.

O'zbek xalq maqollardan namunalar: «Bugungi ishingni ertanga qo'yma»; «Baxt qushini ushlamoq uchun, baxt oviga chiqmoq kerak»; «Odam Vatanni sevar, bulbul chamanni», degan maqollar ham borki, bular bilan: Baxt-tilakda emas, bilakda. «Kishining baxti-bel, bilaging bilan baxtga erisholmaysan, bilagingni ishga sol, mehnat qil», demoqchi bo'ladilar.

Birni kessang o'nni ek. Halqimizning bu va bu singari bir turkum maqollarida ko'chat ekish, bog' qilishga targ'ib etiladi: «Bir daraxtdan o'n bo'lur, o'ntasidan-o'rmon»; «bir tup tok eksang, bir tup tol ek», «Bog'bonning tol ekkani-o'ziga nom ekkani».

“Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas”. Xalqimiz o'zining bir qancha maqollarida ishyoqmaslik va dangasalikni eng yomon illat sifatida qattiq qoralaydi, ishlamay, bekor laqillab yuruvchi shaxslardan xazar qiladi, ishyoqmaslikning oqibati yomon bo'lishni turli maqollarda ko'rsatadi: «Yoz bor, qish bor, dangasada ish bor?»; «Ayoq-ayoz kunlarda olma terarboqi akam, qorli-muzli kunlarda xirmon yig'ar boqi akam»; «Erinchoq ekinchidan erinmagan mashoqchi o'zibdi»: «Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar»; «Yomon kosib bigiz tanlar»; «Ishyoqmas mardikor ketmon tanlar»; «Ishlikning ishi bitar, ishsizning kuni o'tar»; «Ishi yo'q eshak hurkitar»; «Ishi yo'q chivin tutar»; «Ishsiz-iyagin uqalar»; «ishchan kelsa-ish bitar, yalqov kelsa-ish yitar»; «Ishchan yerni yashnatar, yalqov yerni qaqshatar»; «Tayyorga-ayyor», «Ish deganda-nofarmon, osh degnada-jon qurbon» (nofarmon-bo'ysunmovchi, itoat qilmovchi); «osh desang –botir, ish desang yotir»;⁴

Xalq og'zaki ijodida qadimgi xalq qo'shiqlari ham bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda ajoyib vosita hisoblangan. Folklorshunos olim R. Jahongirov bunday qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyatiga to'xtalib Shunday deydi: «Bolalar qishloqda dehqonchilik shaharda kosiblik kulolliq novvoylik duradgorlik temirchilik qisqasi, turmushdagi xilma-xil hunarlarning guvoxi, xunarmandlarning dastyori va hamrohi bo'ladilar, ular otalari mehnat jarayonida yaratgan mehnat ko'shiklarining ilk tinglovchilaridir.

Shohlarim bor gaz-gaz quloch,
Ustida o'ynar qaldirg'och,
Hayday desam qomim och
Men qo'shga qanday yarain

O'roq o'rmoq olmoq-solmoq,
Qo'sh haydamoq boroq-kelmoq.
Hammasidan qiyin ekan,
Ey ho'kkizim ro'zg'or qurmoq

O'rog'im chaqqon,
Sen menga yoqqan.
Qo'lginam chaqqon,
Mehnatda boqqan.

⁴ Axloq-odobga oid Hadis namunalar.-T.:Fan.1990.-172 b.

Mayda-mayda marosin, maydayo-mayda,
Don somondan arisin, maydayo-mayda,
Tong shamoli esganda, maydayo-mayda,
Bobodehqon dorisin, maydayo-mayda.

O'zbek xalq ijodii boyliklari ichida kattalardan bolalarga meros qoladigan qo'shiqlarning salmoqli turi mehnat qo'shiklaridir, xususan, qadimgi bobo-kasb xisoblangan dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlardir. Mehnatning bu turi bilan bog'liq «Qush qo'shiqlari «O'rim qo'shiqlari» «Xirmon qo'shiqlari» dexqonning mehnat jarayonini va uning mexnat samarasini uzida ifoda etadi.

Binobarin, «dehqon mehnati erta bahorda yer haydashdan sanaladi. Yer haydash esa og'ir jismoniy mehnat bulib, bunda tinkani quritadigan mehnat paytida dildan qo'shiq kuylab, o'zini ovutgan va shu orqali mehnatning og'ir azobini unutgan.

Qadimgi masallarning tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq bolalarni o'zbek xalq og'zaki ijodiini tarbiyalash vositasi sifatida keng foydalanishgan. Shu jihatdan qaraganimizda, quyidagi masal ibratlidir. Dehqon o'limi oldidan uchala o'g'lini o'z oldiga chaqirib, har biriga alohida: «Uzumzordagi toklardan birining tagiga tilla ko'mganman, lekin hozir qaysi birining tagiga ko'mganligimni eslolmayanman, tilla ko'mgan joyimni topsang, boyib ketasanlar»,— dedi. Aka-ukalar otasining nasixati bo'yicha tillani rosa kidirishadi. Natijada uzumzordagi toklarning tagi kovlab tashlanadi. Ammo tillani hech kim topa olmaydi. Qizig'i Shundaki, shu yili toklar odatdagidan ikki-uch baravar kup hosil beradi. Uzumzordan tushgan daromad aka-ukalarni boyitib yuboradi. Shundan so'nggina aka-ukalar otalarining qilgan pandu nasihatlarini eslab, uning hech qanday tilla ko'mmaganligini, balki bila turib, bolalarining faqatgina halol mehnat qilishlari va buning evaziga boyishlari uchun Shunday deganligini tuShunib yetganlar.

Demak, xalq og'zaki ijodiida masallarda shuni ko'rish mumkinki, masallarda xalq qo'llagan tarbiya usullari turli-tumandir.

Xalq og'zaki ijodining bunday namunalari, kishining axloqiy me'yorlarini chuqur anglashi (bilishi) va ularga so'zsiz amal qilishidir. Mehnatsevarlik insonning shaxsiy qarashlariga, e'tiqodlariga va odatdagi xulq-atvor shakllarini belgilovchi printsipilariga aylanadi.

Xalq og'zaki ijodining bunday namunalari o'quvchilarda xulq-atvorning ijtimoiy qimmatli sifatlarini shakllantirishni va ularning o'zaro bir-birlariga, oilaga, boshqa insonlarga, Vatanga, mehnatga, jamiyatga munosabatlarini aniqlaydigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida <http://lex.uz/docs/-4327235>
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida <http://lex.uz/docs/-4327235>
3. <http://lex.uz/docs/-3805404> O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqida
4. <http://lex.uz/ru/docs/-5179335> Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida
5. Altshuller G.S. Fantaziya ranglari. Ijodiy tasavvurni rivojlantirish nazariyasiga kirish. // Sarguzasht uchun imkoniyat. / komp. Selyutskiy A.B. - Petrozavodsk, 1991 yil.
6. DB Xalkuzieva, X Muxammadjonova. [Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorligining psixologik jihatlari](#)//Scientific progress 1 (6), 704-707

7. 3. АЗИЗОВА ,З.АБДУРАЗАКОВА. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE //Болаларда халқ оғзаки ижоди воситасида миллий ғурур ҳиссини шакллантиришда оиланинг ўрни Vol. 2 No. 9 (2023): Published: 2023-01-08
8. Jumaboev M. O'zbek va chet el bolalar adabiyoti. T.: O'zbekiston, 2002. 157 b.
9. KD Bahodirovna. [STUDY OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PREPARATION OF PRESCHOOL CHILDREN-](#)INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & ..., 2022/5/10 №11. 57-60
10. SN Anvarovna. Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children- INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND ..., 2022 v1/6//169-173

